

QO‘QON UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/2025.27.12.I.25.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

QO‘QON UNIVERSITETI

RASULOV XAMIDJON YAKUBOVICH

**KICHIK BIZNESDA MIJOZLAR BILAN MUNOSABATLARNI
TAKOMILLASHTIRISH STRATEGIYALARI**

08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD) on
economical sciences**

**Оглавления автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
экономическим наукам**

Rasulov Xamidjon Yakubovich

Kichik biznesda mijozlar bilan munosabatlarni takomillashtirish strategiyalari

Rasulov Khamidjon Yakubovich

Strategies for improving customer relationships in small businesses

Расулов Хамиджон Якубович

Стратегии улучшения отношений с клиентами в малом бизнесе

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

List of published works

Список опубликованных работ

QO‘QON UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/2025.27.12.I.25.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

QO‘QON UNIVERSITETI

RASULOV XAMIDJON YAKUBOVICH

**KICHIK BIZNESDA MIJOZLAR BILAN MUNOSABATLARNI
TAKOMILLASHTIRISH STRATEGIYALARI**

08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti

**IQTISODIYOT FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.1.PhD/Iqt5262 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Qo'qon universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) ilmiy kengash veb-sahifasi (www.kokanduni.uz) va «ZiyoNet» axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Dexkanov Sherzod Abdumutalibovich
iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.

Rasmiy opponentlar:

Umarova Guzal Gayratovna
iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dots.

Ergashov Ihomjon Ikromovich
iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.

Yetakchi tashkilot:

«Ipak yo'li» turizm va madaniy meros xalqaro universiteti

Dissertatsiya himoyasi Qo'qon universiteti huzuridagi PhD.03/2025.27.12.125.01 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil "___" ___ kuni soat ___ dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 150701, Qo'qon shahri, Turkistan, 28A. Tel.: (99873) 545-55-55; faks: (99873) 545-55-55; e-mail: info@kokanduni.uz

Dissertatsiya bilan Qo'qon universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (___ raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 150701, Qo'qon shahri, Turkistan, 28A. Tel.: (99873) 545-55-55; faks: (99873) 545-55-55 <mailto:info@kokanduni.uz>

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil «___» ___ kuni tarqatildi.
(2026-yil «___» ___ kuni ___ raqamli reestr bayonnomasi).



J.H. Kambarov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

B.F. Xursanaliyev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

E.A. Mominova

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Global iqtisodiy muhitda raqobatning shiddat bilan ortib borishi, axborot va raqamli texnologiyalarning keng qo'llanilishi hamda mijoz talablarining uzluksiz o'zgarib turishi kichik biznes sub'ektlari uchun o'z mijozlari bilan munosabatlarni samarali boshqarishni muhim strategiya darajasiga olib chiqdi. Jahon banki va xalqaro moliya tashkilotlari tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda ta'kidlanishicha, global darajada kichik biznes korxonalarining mijozlar bilan muvaffaqiyatli munosabat olib borishi ularning bozorda barqaror qolishining asosiy omili sifatida baholanmoqda. Dunyo tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, CRM tizimlarini joriy etgan kompaniyalar o'rtacha 25% daromad o'sishiga erishgan¹. Xuddi shuningdek, Bain & Company tomonidan o'tkazilgan tadqiqot natijalariga ko'ra, mijozlar bazasini atigi 5%ga oshirish kompaniya foydasini 25%dan 95%gacha ko'paytirishi mumkin². Ushbu raqamlar zamonaviy biznesda CRM tizimlari va mijozlar bilan samarali ishlash strategiyalarining biznes muvaffaqiyatiga qo'shadigan hissasini yaqqol tasdiqlaydi. Xususan, Deloitte tomonidan 2023 yilda o'tkazilgan tahlillarda CRM texnologiyalarini joriy etgan kompaniyalarning 64 foizi o'z daromadlarining mijozlar bilan munosabatlarni yaxshilash orqali oshganini qayd etgan. Mazkur holatlar kichik biznes korxonalarida mijozlarga yo'naltirilgan strategiyalarni chuqur tadqiq qilish va ularni takomillashtirishning global darajada muhim ahamiyatga ega ekanligini tasdiqlaydi. Bu esa global miqyosda murakkab sharoitlarda ham mijozlar bilan mustahkam munosabatlar o'rnatish naqadar dolzarb ekanini ko'rsatadi.

Jahon iqtisodiyotining rivojlanishida kichik biznes subyektlari oldida paydo bo'layotgan murakkabliklar va raqobatli bozor sharoitlari ularning mijozlar bilan o'zaro munosabatlarni yanada mustahkamlash, yangi strategiya va yondashuvlarni ishlab chiqish va ularni amaliyotga tatbiq etishni talab qilmoqda. Mijozlar qoniqishini ta'minlash va ularni saqlab qolish borasidagi ilmiy tadqiqotlar so'nggi yillarda marketing va biznes boshqaruvi sohasining eng ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. Xususan, raqamli texnologiyalar, sun'iy intellekt, prognozlashtiruvchi analitika va emotsional marketing yondashuvlarini CRM strategiyalari bilan uyg'unlashtirish jahon ilm-fanining yangi trendlarini yaratmoqda. Biroq, bu sohada kichik biznes xususiyatini hisobga oluvchi nazariy modellarning kamligi va mavjud tadqiqotlarning asosan yirik kompaniyalar misolida o'tkazilgani mazkur mavzudagi tadqiqotlarning nazariy va amaliy jihatdan dolzarbligini belgilab beradi. Dunyo kompaniyalarining 80% dan ortig'i mijozlar tajribasini (customer experience) raqobatdagi ustunlik omili deb biladi³, ya'ni mijozlar bilan munosabatlarni boshqarish masalasi nafaqat ilmiy, balki amaliy jihatdan ham ustuvor yo'nalishga aylangan.

O'zbekistonda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar kichik biznesni rivojlantirish, uning yalpi ichki mahsulotdagi ulushini oshirish va tadbirkorlik

¹ <https://saphyte.medium.com/unraveling-crms-impact-on-sales-insights-success-stories-and-challenges-2fac48c81e0e>.

² <https://hbr.org/2014/10/the-value-of-keeping-the-right-customers>.

³ <https://www.superoffice.com/blog/customer-experience-statistics/#:~:text=But%20the%20most%20convincing%20reason,become%20so%20important%20is%20this>.

muhitini yaxshilashni asosiy vazifa sifatida belgilab olgan. Shuningdek, iste'molchilar huquqlarini himoya qilishning iqtisodiy va huquqiy asoslari mustahkamlanib kelinmoqda. O'zbekiston-2030⁴ strategiyasining 2-bandi barqaror iqtisodiy o'sish orqali aholi farovonligini ta'minlashga qaratilgan bo'lib, 17 ta maqsadni o'z ichiga olgan. Xususan, uning 58-maqsadida O'zbekistonda tashqi va ichki turizmni rivojlantirish uchun keng sharoitlar yaratish orqali sayyohlar sonini oshirish hamda 59-maqsadida hududlarda xizmatlar sohasini jadal rivojlantirish bo'yicha topshiriqlar berilgan. Bu kabi islohotlar mazkur soha raqobatbardoshligini oshirish bilan bog'liq ilmiy ishlar salmog'ini intensiv oshirib borish zarurligini ko'rsatadi. Ushbu vazifalarni amalga oshirish kichik biznes sub'ektlaridan o'z mijozlari bilan munosabatlarni yanada samarali boshqarish, bozor talablariga tezkor javob berish hamda ilg'or CRM texnologiyalarini qo'llashni taqozo etadi.

Dissertatsiya tadqiqoti O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 15-maydagi PF-87-son "2025-2026-yillarda sayyohlar oqimini keskin ko'paytirish va turistik xizmatlar ko'lamini jadal kengaytirish orqali turizmning iqtisodiyotdagi o'rnini va ahamiyatini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2025-yil 19-martdagi PF-10-son "Kichik va o'rta biznesning iqtisodiyotdagi o'rnini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2024-yil 18-iyuldagi PF-102-son "O'zbekiston Respublikasida turizm infratuzilmasini yaxshilash va xorijiy turistlar oqimini yanada oshirishga qaratilgan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi, 2024-yil 12-yanvardagi PF-9-son "Respublikaga xorijiy turistlar oqimini keskin oshirish hamda ichki turizmni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-son "O'zbekiston-2030" strategiyasi to'g'risida"gi farmonlari, 2024-yil 18-iyuldagi PQ-269-son "Turizm sohasida kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2024-yil 7-sentyabrdagi PQ-312-son "Kichik biznesni uzluksiz qo'llab-quvvatlash" kompleks dasturini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2023-yil 27-iyuldagi PQ-238-son "Turizm yo'nalishidagi islohotlarni yanada jadallashtirish va sohada davlat boshqaruvi tizimini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2022-yil 30-apreldagi PQ-232-son "Ichki turizm xizmatlarini diversifikatsiya qilishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2025-yil 24-iyundagi 385-son "Turizm obyektlari hamda joylashtirish vositalarida atrof-muhitga salbiy ta'siri kamaytirilgan mahsulotlardan foydalanish va ekologik talablarga muvofiq ko'rsatiladigan xizmatlarni rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2024-yil 7-dekabrda 820-son "Turizm sohasini raqamlashtirish va turistik xizmatlarni yagona platformaga birlashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2024-yil 18-sentyabrdagi 582-son "Turizmning yangi turlarini joriy qilish hamda mamlakatning turistik salohiyatidan samarali foydalanishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi, 2024-yil 24-fevraldagi 582-son "Ichki va ziyorat turizmini rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorlari boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarida belgilangan vazifalarni amalga oshirishda muayyan darajada xizmat qiladi.

⁴O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 11 sentyabrdagi "O'zbekiston-2030" strategiyasi to'g'risida"gi PF-158-son Farmoni. <https://lex.uz/pdfs/6600413>.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Demokratik va huquqiy jamiyatni ma‘naviy-ahloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Kichik biznes subektlarida mijozlar bilan munosabatlar strategiyalarini rivojlantirish bo‘yicha xorijiy olimlar tomonidan ko‘plab ilmiy tadqiqot ishlari amalga oshirilgan. Jumladan, xorijiy olimlardan P.Hague, N.Hague, A.Specchia, D.Karri, F.Battl, D.G.Boyyett, F.Kotler, D.Bell, R.Rast, D.Peppers, M.Rodgers⁵ tadqiqotlarida mijozlar bilan munosabatlarga oid strategiyalarning o‘ziga xos xususiyatlari, korxonalarda mijozlararo munosabatlarning rivojlanishi, faoliyatni boshqarishning nazariy jihatlarini muayyan darajada nazariy va uslubiy jihatdan tadqiq etilgan.

MDHdagi iqtisodchi olimlaridan N.V.Smirnov, Y.Y.Deputatova, Y.V.Alikina I.V.Aleshina, A.A.Kuprin, D.Igan, K.I.Alexin, A.V.Vasilkovlarning⁶ ilmiy ishlarida mijozlar xulq atvorini boshqarish, xususan, turistik firmalarning mijozlar bilan munosabatlarini boshqarish masalalari yoritilgan. Mazkur olimlarning tadqiqotlarida mijozlar xulq-atvorining xususiyatlarini, mijozlar oqimini boshqarishning strategik jihatlarini, innovatsion kompaniyalarning mijozlari bilan o‘zaro munosabatlarini ko‘rib chiqilgan.

O‘zbekistonda kichik biznesning turli tarmoqlarini rivojlantirish jarayonlari mamlakatimizda M.A.Ikramov, M.Butaboyev, N.Maxmudov, Y.Abdullayev,

⁵ Hague, P, Hague, N. B2B Customer Experience: A Practical Guide to Delivering Exceptional CX (2nd ed.). — London: Kogan Page, 2023. Specchia, A. Customer Relationship Management (CRM) for Medium and Small Enterprises: How to Find the Right Solution for Effectively Connecting with Your Customers. — London / New York: Routledge, 2022. — 230 p. Curry J., Curry A. The customer marketing method: how to implement and profit Customer Relationship Management. N.Y.: Free Press, 2000, 237 p. Джозеф Г. Бойетт, Джимми Т. Бойетт. Гуру маркетинга. Каким быть маркетингу в третьем тысячелетии: пер. с англ. М.: Эксмо, 2004. 320 с. URL: http://bookz.ru/authors/djozef-boiett/guru-mar_881/1-guru-mar_881.html. Rust R.T., Zeithaml V.A., Lemon K.N. Driving Customer Equity: How Customer Lifetime Value is Reshaping Corporate Strategy. New York: Free Press, 2000. Bell D., Deighton J., Reinartz W.J., Rust R., Swartz G. Seven barriers to customer equity management // Journal of services research, 2002, 3. Пепперс Д., Роджерс М. Управление отношениями с клиентами: Как превратить базу ваших клиентов в деньги / ДонПепперс, Марта Роджерс; пер. с англ. Д.Л. Раевской, С.Н. Живаевой; [под ред. С.Н. Хромова-Борисова, Ю.В. Вронского, В.В. Титова]. М.: Манн, Иванов и Фербер, 2006. 336 с. URL:http://www.mann-ivanov-ferber.ru/assets/files/bookparts/017/otnosheniya_read.pdf. Котлер Ф. Маркетинг 3.0. От продуктов к потребителям и далее – к человеческой душе / Ф. Котлер, Х. Картаджая, А. Сетиаван; пер. с англ. М.: Эксмо, 2011. 240 с. URL: http://kiogmuis.ucoz.ru/Student/marketing_3.0.pdf.

⁶ Смирнов В. Н. Управление взаимоотношениями с клиентами (CRM): учебно-методическое пособие. — Владимир: ВлГУ, 2022. — 171 с. Депутатова, Е. Ю. Системный подход к исследованию покупательского поведения и обслуживания в розничной торговле: монография / Е. Ю. Депутатова, С. Б.Ильяшенко. - 2-е изд. - Москва : Издательско-торговая корпорация «Дашков и К°», 2019. - 122 с. Аликина, Е.В., Модель рекомендованного поведения потребителей услуг туристических компаний [Текст] / Е. В. Аликина, А.И. Хамадиева // Маркетинг и маркетинговые исследования. - 2013. - № 4(106). Алешина И.В. Поведение потребителей: учебное пособие для вузов – М.: Фаир-Пресс, 2017. – 525 с. Куприн, А. А. Формирование адаптивной системы управления организацией предпринимательского типа к изменяющимся условиям внешней среды [Текст]: дис. ... канд. экон. наук: 08.00.05 / Куприн Андрей Анатольевич. - СПб, 2010. - 169 с. Иган Джон Маркетинг взаимоотношений. Анализ маркетинговых стратегий на основе взаимоотношений : учебник для студентов вузов, обучающихся по специальностям экономики и управления 080100, «Коммерция (торговое дело)» 080301 / Иган Джон. - Москва:ЮНИТИ-ДАНА, 2017. - 375 с. Алехин,К.И. CRM-системы, как средство управления взаимоотношениями с клиентами [Текст]: учебное пособие / К. И. Алехин, –Москва: Литера, 2013 г. – 182 с. Васильков, А. В. Система управления взаимоотношениями с клиентами [Текст]: учебное пособие / А. В. Васильков, – Москва: Форум, 2014 г. – 348 с.

U.G'ofurov, R.Ayupov, marketingning strategiyalaridan samarali foydalanish yo'nalishlari iqtisodchi olimlardan Sh.Ergashxodjayeva, A.Bekmurodov, G.Bekmuradova, A.Eshtayev, M.Ziyayeva, J.Jalilov⁷ va boshqalarning ilmiy-tadqiqot ishlarida o'z ifodasini topgan.

Yuqorida qayd etilgan olimlar kichik biznes sohasini rivojlantirish va ulardagi strategik boshqarish jarayonlarini takomillashtirish, mijozlar xulq atvorini tasniflash borasida ilmiy-nazariy tadqiqotlarni amalga oshirib, mazkur yo'nalishni rivojlantirishga o'z hissalarini qo'shganlar. Biroq ular tomonidan kichik biznesda mijozlar bilan munosabatlar strategiyalarini takomillashtirish, kichik biznesda mijozlar bilan munosabatlar samaradorligini baholash usullarini tadqiq etish, soha faoliyatini rivojlantirish, masalalari yetarli darajada o'rganilmagan.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim yoki ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Qo'qon universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq, "Farg'ona viloyati Farg'ona tumanida turistik-rekreatsiya faoliyatini raqamli texnologiyalar asosida tizimlashtirish orqali rivojlantirish" mavzusidagi ilmiy-tadqiqot ishlari rejasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi kichik biznesda mijozlar bilan munosabatlar strategiyalarini takomillashtirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

mijozlar bilan munosabatlar strategiyalarining mohiyati, rivojlanish nazariyalarini o'rganish;

kichik biznes faoliyatida mijozlar bilan munosabatlar strategiyalariga ta'sir etuvchi omillar va ularning o'ziga xos xususiyatlarini ilmiy tadqiq etish;

mijozlar bilan munosabatlarni tashkil etish bo'yicha xorijiy tajribalardan foydalanish yo'nalishlari bo'yicha takliflar ishlab chiqish;

kichik biznesda mijozlar bilan munosabatlar strategiyalarining o'ziga xos xususiyatlarini tahlil qilish;

mamlakatimizda turizm sohasining rivojlanish tendensiyalari va sohadagi mijozlar bilan munosabatlarni baholash;

⁷ M.A. Ikramov, N.R. Sharopova. Mijozlararo munosabatlarni boshqarish. (O'quv qo'llanma) – T.: «Innovatsion rivojlanish nashriyat-matbaa uyi», 2024, 330 bet. M.Butaboyev, N.Maxmudov. Raqamli iqtisodiyot. (Darslik) – T.: "SamDU" nashriyoti, 2021, 448 bet. Абдуллаев Ё., Каримов Ф. Кичик бизнес ва тадбиркорлик асослари. – Т.: Меҳнат, 2010. - 349 б.; Гофуров У.В. Кичик бизнесни давлат томонидан тартибга солишнинг иқтисодий механизмларини такомиллаштириш. Авт.икт. фан. док. –Т.: 2007 й. 97 б; Аюпов Р.Х., Г.Р.Балтабаева. Кичик бизнес ва тадбиркорликда инновацион ривожланиш йўналишлари. Монография.– Т.:Фан ва технология, 2018, – 232 б. Ergashxodjayeva Sh.J. Strategik marketing. Т.: "IQTISODIYOT", 2019. – 236 б.; Бекмуродов А.Ш. Эффективность маркетинга средств производства. Автореф. дисс. док. экон наук. – Т. 1993; Бекмуродова Г. Тижорат банклари рақобатбардошлигини оширишнинг инновацион маркетинг концепциясини такомиллаштириш. 08.00.11 – Маркетинг. Иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (Phd) диссертацияси автореферати. – Тошкент: ТДИУ, 2018 йил. 9-бет; .А.Еshtayev. Globallashuv sharoitida turizm industriyasini boshqarishning marketing strategiyasi. (O'zbekiston Respublikasi turizm tarmog'i misolida) Iqtisodiyot fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan diss.-S.: SamISI,2019.–246-b. Зияева М.М. Истеъмолчилар хулқ-атворидаги ўзгаришларни ҳисобга олган ҳолда хизматларни таснифлаш тамойиллари. "Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар" илмий электрон журнали. № 2, март-апрель, 2018 йил. http://iqtisodiyot.tsue.uz/sites/default/files/maqolalar/Ziyayeva_0.pdf 10. Ж.Жалилов. Маркетингда истеъмолчиға йўналтирилган мотивация назариялари. "Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар" илмий электрон журнали. № 5, сентябрь-октябрь, 2016 йил

kichik biznesda mijozlar bilan munosabatlar samaradorligini baholash usullarini tadqiq etish;

iqtisodiy samaradorlikni oshirish asosida kichik biznesda mijozlar bilan munosabatlarni takomillashtirish;

raqamli texnologiyalar asosida kichik biznesda mijozlar bilan munosabatlar strategiyalarini rivojlantirish

kichik biznes subyektlarida mijozlar bilan munosabatlarni rivojlantirish omillarining ekonometrik modelini ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti sifatida Farg‘ona viloyatida faoliyat ko‘rsatayotgan kichik biznes korxonalarini hamda ularning mijozlar bilan munosabatlari jarayonlari tanlab olingan.

Tadqiqotning predmeti bo‘lib kichik biznes korxonalarida mijozlar bilan munosabatlar strategiyalarini takomillashtirish jarayonlari bilan bog‘liq ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar majmui hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiya ishida induksiya, deduksiya, taqqoslash, tahlil va sintez, ekspert baholash usuli, statistik tahlil, anketa so‘rovlari o‘tkazish va tahlil etish, PEST – tahlili, ekonometrik modellashtirish usullari qo‘llanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

korxonalarining raqobatbardoshligini kuchaytiruvchi, mijozlar bilan uzluksiz va aniq boshqariladigan munosabatlar tizimini shakllantirishda CRM (Customer Relationship Management) tizilmasining asosiy funksiyalari va strategiyalarini korxonalar–mijoz o‘zaro munosabatlari modeli asosida hududiy klasterlash va bulutli texnologiyalar bilan integratsiya qilish taklif etilgan;

mahalliy kichik korxonalarda xizmat sifati darajasini baholashda SERVQUAL modelining moddiylik, ishonchlik, javobgarlik, ishonch uyg‘otish va empatiya kabi mezonlari asosida xizmat ko‘rsatish jarayonidagi kutilmalar va amaldagi natijalar o‘rtasidagi farqni aniqlash asoslangan;

kichik korxonalar uchun raqobatbardoshlikni oshirish, xizmatlar bozorida samarali pozitsiyalanish, operativ boshqaruvni optimallashtirish va rivojlanish algoritmi asosida mijozlar bilan ishlash tizimi takomillashtirilgan;

mijozlar bilan munosabatlarni samarali boshqarishni ta‘minlash maqsadida Eko-CRM va barqaror turizm, dinamik narx belgilash, mijoz sayohatini raqamlashtirish hamda ta‘minot zanjiriga integratsiyalash strategiyalarini ekspertlar tomonidan sifat darajasi bo‘yicha baholashga asoslangan mezonlar tizimi ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijasi quyidagilardan iborat:

xalqaro amaliyotda kichik biznes sohasida mijozlar bilan munosabatlarni tartibga solishning asosiy modellari asosida mamlakatimizda mazkur sohada rivojlanish strategiyalari hamda tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari asoslangan;

xalqaro tajribalar asosida mijozlar bilan munosabatlarni takomillashtirish yo‘nalishlari tahlil etilib, ularni kichik korxonalariga tadbiq etishning amaliy taklifi ishlab chiqilgan;

O‘zbekistonda CRMni rivojlanishi asosida biznes raqobatbardoshligini oshirish bo‘yicha usullar tahlili amalga oshirilgan;

kichik biznesda mijozlar bilan munosabatlarni boshqarish va rivojlanish holati

va o'zgarish tendensiyalari tahlili asosida faoliyat natijalarining asosiy o'zgarish trendlari aniqlangan;

anketa so'rovi hamda ekspert baholash usullari asosida kichik korxonalarda mijozlar bilan munosabatlari faoliyati samaradorligiga ta'sir etuvchi eng muhim omillar baholangan;

mijozlar bilan munosabatlarni boshqarishning iqtisodiy va moliyaviy ko'rsatkichlarini baholash asosida biznes uchun daromad va samaradorlikni oshirish, shuningdek, barqaror moliyaviy o'sishga erishish uchun asosiy yo'nalishlari asoslangan.

Olingan natijalarining ishonchliligi tadqiqotda qo'llanilgan metodologik yo'ndashuv va usullarning maqsadga muvofiqligi axborotlar bazasining rasmiy manbalaridan, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezident huzuridagi statistika agentligining statistik ma'lumotlari manbalaridan olingani hamda tegishli xulosa va takliflarning amalda sinovdan o'tkazilganligi, olingan natijalarning vakolatli davlat tuzilmalari tomonidan ma'qullanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati tadqiqotda ishlab chiqilgan nazariy va uslubiy taklif hamda tavsiyalarni turistik korxonalarda mijozlar bilan munosabatlar strategiyalarini takomillashtirish, bozor ulushini va pirovardida korxonalar rentabelligini oshirishga, strategik rejalashtirish usullarini, konsepsiyasini, tashkiliy va texnik vositalarni jalb qilish muammolarini hal qilishga imkon beradi, ichki va tashqi aloqalarni o'rnatishga qaratilgan so'nggi texnologiyalarni joriy etish hamda mijozlar sadoqatini oshirishda foydalanilishi mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati tadqiqotda ishlab chiqilgan nazariy va uslubiy taklif hamda tavsiyalarni turistik korxonalarda mijozlar bilan munosabatlarni boshqarish strategiyalarini takomillashtirish, bozor ulushini va pirovardida korxonalar rentabelligini oshirishga, strategik rejalashtirish usullarini, konsepsiyasini, tashkiliy va texnik vositalarni jalb qilish muammolarini hal qilishga imkon beradi, ichki va tashqi aloqalarni o'rnatishga qaratilgan so'nggi texnologiyalarni joriy etish hamda mijozlar sadoqatini oshirishda foydalanilishi mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati O'zbekiston Respublikasi Madaniyat va turizm vazirligi faoliyatida, milliy iqtisodiyotning kichik biznes faoliyati bilan bog'liq bo'lgan tarmoqlarida, korxonalarda mijozlar bilan munosabatlarni boshqarish strategiyalarini rivojlantirishga doir tadbirlarni ishlab chiqishda, soha faoliyatini rivojlantirishga qaratilgan qisqa va uzoq muddatli rivojlanish strategiyalarni ishlab chiqishda, oliy o'quv yurtlarida "Kichik biznes va tadbirkorlik", "Mijozlar xulq atvorini boshqarish" va "Marketing strategiyasi" kabi fanlardan o'quv qo'llanma va darsliklar tayyorlashda ilmiy-uslubiy manba sifatida foydalanilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Kichik biznes korxonalarida mijozlar bilan boshqarish strategiyalarini takomillashtirish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

korxonalarining raqobatbardoshligini kuchaytiruvchi, mijozlar bilan uzluksiz va aniq boshqariladigan munosabatlar tizimini shakllantirishda CRM (Customer

Relationship Management) tizilmasining asosiy funksiyalari va strategiyalarini korxonamijoz o'zaro munosabatlari modeli asosida hududiy klasterlash va bulutli texnologiyalar bilan integratsiya qilish taklifi O'zbekiston Respublikasi Turizm qo'mitasi huzuridagi Turizmni rivojlantirish ilmiy tadqiqot instituti, Farg'ona viloyati turizm boshqarmasining tarmoq korxonalari, shuningdek Dilrabotravel MChJ faoliyatiga joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Turizm qo'mitasi huzuridagi Turizmni rivojlantirish ilmiy tadqiqot institutining 2025-yil 5-dekabrda I-467/10 sonli, Farg'ona viloyati turizm boshqarmasining 2025-yil 7-oktyabrda, Dilrabotravel MChJning 2025-yil 6-oktyabrda ma'lumotnomasi). Natijada, mijoz segmentatsiyasi, ma'lumot almashinuvi hamda xizmat ko'rsatish jarayonlarining samaradorligini oshirgan holda tarmoq korxonalari mijozlarining qayta sotib olish borasidagi murojaatlari hajmini o'rtacha 37 foizga oshirishga erishilgan;

mahalliy kichik korxonalarda xizmat sifati darajasini baholashda SERVQUAL modelining moddiylik, ishonchlilik, javobgarlik, ishonch uyg'otish va empatiya kabi mezonlari asosida xizmat ko'rsatish jarayonidagi kutilmalar va amaldagi natijalar o'rtasidagi farqni aniqlashga doir taklifi O'zbekiston Respublikasi Turizm qo'mitasi huzuridagi Turizmni rivojlantirish ilmiy tadqiqot instituti, Farg'ona viloyati turizm boshqarmasining tarmoq korxonalari, shuningdek Dilrabo travel MChJ faoliyatiga joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Turizm qo'mitasi huzuridagi Turizmni rivojlantirish ilmiy tadqiqot institutining 2025-yil 5-dekabrda I-467/10 sonli, Farg'ona viloyati turizm boshqarmasining 2025-yil 7-oktyabrda, Dilrabotravel MChJning 2025-yil 6-oktyabrda ma'lumotnomasi). Natijada, mahalliy kichik korxonalarda SERVQUAL modelini moddiylik [E=4,6; P=4,3; SQ=-0,3] ishonchlilik [E=4,7; P=4,4; SQ=-0,3] javobgarlik [E=4,5; P=4,2; SQ=-0,3] ishonch uyg'otish [E=4,8; P=4,5; SQ=-0,3] empatiya [E=4,6; P=4,2; SQ=-0,4] mezonlari asosida tarmoq korxonalarida xizmat ko'rsatuvchi xodimlar uchun KPI tizimi ishlab chiqilgan bo'lib, bu xodimlarning ish samaradorligini o'rtacha 22 foizga ortishiga olib kelgan;

kichik korxonalar uchun raqobatbardoshlikni oshirish, xizmatlar bozorida samarali pozitsiyalanish, operativ boshqaruvni optimallashtirish va rivojlanish algoritmi asosida mijozlar bilan ishlash tizimi takomillashtirishga doir taklifi O'zbekiston Respublikasi Turizm qo'mitasi huzuridagi Turizmni rivojlantirish ilmiy tadqiqot instituti, Farg'ona viloyati turizm boshqarmasining tarmoq korxonalari, shuningdek Dilrabotravel MChJ faoliyatiga joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Turizm qo'mitasi huzuridagi Turizmni rivojlantirish ilmiy tadqiqot institutining 2025-yil 5-dekabrda I-467/10 sonli, Farg'ona viloyati turizm boshqarmasining 2025-yil 7-oktyabrda, Dilrabotravel MChJning 2025-yil 6-oktyabrda ma'lumotnomasi). Natijada, tarmoq korxonalarida mijozlarning qoniqish darajasini o'rtacha 19 foizga oshirishga erishilgan;

mijozlar bilan munosabatlarni samarali boshqarishni ta'minlash maqsadida Eko-CRM va barqaror turizm, dinamik narx belgilash, mijoz sayohatini raqamlashtirish hamda ta'minot zanjiriga integratsiyalash strategiyalarini ekspertlar tomonidan sifat darajasi bo'yicha baholashga asoslangan mezonlar tizimi ishlab chiqishga doir taklifi O'zbekiston Respublikasi Turizm qo'mitasi huzuridagi Turizmni rivojlantirish ilmiy tadqiqot instituti, Farg'ona viloyati turizm

boshqarmasining tarmoq korxonalari, shuningdek Dilrabottravel MChJ faoliyatiga joriy etilgan (O‘zbekiston Respublikasi Turizm qo‘mitasi huzuridagi Turizmni rivojlantirish ilmiy tadqiqot institutining 2025-yil 5-dekabrda I-467/10 sonli, Farg‘ona viloyati turizm boshqarmasining 2025-yil 7-oktyabrda, Dilrabottravel MChJning 2025-yil 6-oktyabrda ma‘lumotnomasi). Natijada, xizmat jarayonining barqarorligini ta‘minlash, mijoz tajribasini yaxshilash va korxonalar raqobatbardoshligini oshirishda Eko-CRM va barqaror turizm [4,3-yaxshi], dinamik narx [4,6-a‘lo], mijoz sayohatini raqamlashtirish [4,3-yaxshi], ta‘minot zanjiriga integratsiyalash strategiyalari [4,5-a‘lo]ni darajasiga ko‘ra ekspert usulida baholash mezonlaridan tarmoq korxonalarining 2026-2030-yillarga mo‘ljallangan rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqishda faoydalanilgan.

Tadqiqot natijalarining aprotatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari yuzasidan 8 ta ish aprotatsiyadan o‘tkazilgan. Ularning 3 tasi xalqaro ilmiy-amaliy anjumanlarda, 5 tasi respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarida aprotatsiyadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 24 ta ilmiy ish, shu jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 8 ta maqola nashr qilingan. Ularning 2 tasi Respublika va 6 tasi xorijiy jurnallarda e‘lon qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Uning umumiy hajmi 153 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va asosiy vazifalari, ob‘ekti va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning amaliyotga joriy qilinishi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tarkibiy tuzilishi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.


Dissertatsiyaning **“Kichik biznesda mijozlar bilan munosabatlarni faollashtirish strategiyalarining nazariy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida mijozlar bilan munosabatlardagi mavjud tendensiyalar va xorijiy tajribalar o‘rganilib, mamlakatimizdagi kichik biznes korxonalarida mavjud CRM tizimlariga baho berishning metodologiyasi tahlil qilingan.

F.Kotler modeli shuni ko‘rsatadiki, iste‘molchi xatti-harakati bixeviorizm tomonidan taklif qilingan xatti-harakatlarning asosiy formulasi bilan belgilanmaydi: “S-R” (“Stimul”-“Reaksiya”). Marketing yoki boshqa rag‘batlantirishlar (rag‘batlantirish) to‘g‘ridan-to‘g‘ri tanlash jarayonini aniqlamaydi, balki sotib olish to‘g‘risida qaror qabul qiladi. Ushbu ikki blok o‘rtasida markaziy blok mavjud - uning psixologik xususiyatlari, madaniy, ijtimoiy va shaxsiy xususiyatlari bilan iste‘molchining shaxsiyati.

Mijozlar bilan munosabatlarni boshqarishga (CRM) strategik yondashuv mijozlarni biznesning ustuvor yoʻnalishi sifatida birinchi oʻringa qoʻyadi. Bunday CRM tizimi eng jozibali tijorat takliflarini yaratish uchun mijozlar va bozor tendentsiyalari haqida maʼlumot toʻplash va tahlil qilishga qaratilgan⁸. Kompaniya amaliyotida CRM strategiyasi koʻpincha mijozlarga xizmat koʻrsatishni yaxshilash va daromadni oshirishga qaratilgan uzoq muddatli harakatlar rejasi sifatida qaraladi⁹.

Strategik CRM doirasida mijozlar bilan oʻzaro munosabatlarning aniq maqsadlari shakllantiriladi, ular ish yoʻnalishini belgilaydi. Masalan, strategiyalar yirik mijozlarga xizmat koʻrsatishga yoki alohida mijozlarning ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan boʻlishi mumkin. Strategik rejalarning batafsil tavsifi, ularning mumkin boʻlgan natijalari, shuningdek kuchli va zaif tomonlarini baholash muhimdir¹⁰.

Frensis Battle oʻzining “CRM tushunchalari va texnologiyalari” asarida mijozlar bilan munosabatlarning ettita asosiy strategiyasini belgilaydi, ularning har biri mijozlar bazasi bilan oʻzaro munosabatlarning turli jihatlarini optimallashtirishga qaratilgan. Ushbu strategiyalarning har biri mijozlarning oʻzaro munosabatlarini optimallashtirish va biznes rentabelligini oshirish uchun individual yondashuv va puxta rejalashtirishni talab qiladi¹¹.



1-rasm. F.Kotlarning isteʼmolchi xatti-harakati modeli¹²

CRM tizimi eng samarali vositalardan biri boʻlib qolmoqda, chunki u menejerlar oʻz ishlarida tez-tez foydalanadigan boshqa xizmatlar bilan

⁸ Пепперс Д., Роджерс М. Управление отношениями с клиентами: Как превратить базу ваших клиентов в деньги. М. : Манн, Иванов и Фербер, 2006. 336 с. [Peppers D., Rogers M. Customer relationship management: How to turn your customer base into money. Moscow: Mann, Ivanov i Ferber, 2006. 336 p. (In Russ.)]

⁹ Вансович А. CRM — ключ нового маркетинга. М. : Альпина Паблишер, 2012. 255 с. [Vansovich A. CRM — the key to new marketing. М. : Alpina Publisher, 2012. 255 p. (In Russ.)].

¹⁰ Веселова Ю. В. CRM-системы как средство реализации маркетинга взаимоотношений с клиентами // The Scientific Heritage. 2022. Т. 84. № 5. С. 30–33 [Veselova Yu. V. CRM systems as a means of implementing customer relationship marketing. The Scientific Heritage, 2022;84 (5):30–33 (In Russ.)]

¹¹ Francis Buttle, Stan Maklan. Customer Relationship Management. 2nd edition. Routledge; 2008. 528 p.

¹² Котлер, Ф., Келлер, К. Л. (2014). Маркетинг менеджмент. 14-е изд. Санкт-Петербург.

integratsiyalashgan: ijtimoiy tarmoqlar, messenjerlar, elektron pochta xabarlarini tarqatish va to‘lovlarni qabul qilish platformalari, 1C va IP telefoniya. CRM-dan foydalanadigan kompaniyalar sotuvlar 29% ga, mahsuldorlik 39% ga va sotish prognozlarining to‘g‘riligi 32% ga oshgani haqida xabar berishadi. Ular muntazam biznes jarayonlarini avtomatlashtirish orqali yuqori ko‘rsatkichlarga erishadilar ¹³.

Yaponiya tajribasini tadbqiq etish uchun esa AQSh tajribasi asosida Bulutli CRM texnologiyalarini joriy etish qo‘llab-quvvatlash vazifasini bajaradi. Sababi, hududlardagi kichik biznes klasterlarini birlashtirib turadigan CRM texnologiyalari uchun katta hajmdagi bulutli texnologiyalar va katta hajmdagi ma‘lumotlar bilan ishlovchi tizimlar kerak bo‘ladi.

1-jadval

Yaponiya, AQSH va Yevropa mamlakatlarining mijozlar bilan ishlash bo‘yicha tajribalarini respublikadagi mavjud kichik korxonalariga joriy etish taklifi¹⁴

Xorijiy model	Tadbqiq etish mexanizm	Texnologiya	Kutilayotgan natijalar
Yaponiya (Keiretsu)	<ul style="list-style-type: none"> – Hududiy klasterlar tashkil etiladi. – Klasterlar ishlab chiqaruvchi, xizmat ko‘rsatuvchi va logistika kompaniyasidan iborat bo‘ladi. – CRM ma‘lumotlar platformasi integratsiyalashadi va mijozlar haqida yagona ma‘lumotlar bazasi yaratiladi. 	MahallaCRM, IoT, sinxronlash	<ul style="list-style-type: none"> – takroriy savdolari darajasi ortadi; – ta‘minot zanjiridagi uzilishlar kamayadi; – mijozlar qoniqishi ortadi; – tannarx xarajatlari kamayadi.
AQSh (Bulutli CRM)	<ul style="list-style-type: none"> – Davlat ko‘magida UzCRM Cloud platformasi ishlab chiqiladi. – Kichik biznes korxonalarilar uchun 3 oylik bepul lisenziyali CRM dasturini sinov tariqasida joriy qilinadi. – Korxonalarni raqamli sertifikatlash tizimi orqali CRM tayyorgarligi baholanadi. 	AI, Bulutli CRM, sinxronlash	<ul style="list-style-type: none"> – marketing xarajatlari kamayadi; – sof foyda ortadi; – mijozlar qiziqishi ko‘payadi.
Yevropa (Hissiy CRM)	<ul style="list-style-type: none"> – Mijoz sadoqati dasturi milliy indeksi joriy etiladi. – Kichik biznes korxonalarilar uchun har yillik mijozlarni audit qilish tizimi joriy etiladi. – CRM tizimlariga qayta aloqa va hissiy modullari qo‘shiladi. 	NLP, CRM platforma, qayta aloqa algoritmi	<ul style="list-style-type: none"> – so‘rovlarga javob berish vaqti qisqaradi; – mijozlarni yo‘qotish darajasi kamayadi; – mijozlar sadoqati ortadi.

Buni quyidagi yo‘nalishlar orqali tashkil etish mumkin:

– O‘zbekistonning “Raqamli iqtisodiyot – 2030” dasturi doirasida mahalliy

¹³ Трофимов С. CRM для практиков. М.: АвтоКод, 2016. 304 с. [Trofimov S. CRM for practitioners. Moscow: AvtoKod, 2016. 304 p. (In Russ.)].

¹⁴ Muallif ishlanmasi.

CRM startaplarini rivojlantirish va kichik biznesga ularni subsidiya asosida joriy etish (masalan, “UzCRM”, “MahallaCRM” loyihalari).


– Oliy ta’lim va ilmiy-tadqiqot muassasalari (masalan, TDIU, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti) bilan hamkorikda CRM data-analitika bo’yicha malaka dasturlarini yo’lga qo’yish.

– Davlat xaridlari va soliq tizimini CRMga integratsiya qilish orqali tadbirkorlar faoliyatini avtomatlashtirish.

Taklif natijasida kichik biznesning raqamli ko’rsatkichlari oshadi, mijozlarni segmentlash va CLV (Customer Lifetime Value)ni hisoblash imkoniyati kengayadi, marketing strategiyalarini rejalashtirish yanada ommalashadi.

Dissertatsiya ishining ikkinchi bobi **“Kichik biznes korxonalarida mijozlar bilan munosabatlarni boshqarish holati tahlili va tendensiyalari”** deb nomlanib, O’zbekistonda turizm sohasidagi biznes subyektlari faoliyatini rivojlanish tendensiyalari, kichik biznesda mijozlar bilan ishlash va ularning natijalari tahlili hamda mijozlar bilan munosabatlar samaradorligini baholash usullari tahlil qilingan.

2000-yilga kelib, kompyuter texnologiyalarining rivojlanishi bilan CRM xizmatlari bozorining shakllanishi boshlandi. Shu davrda “Peoplesoft” kompaniyasi “Vantive” sotib olish orqali yetakchiga aylandi; shuningdek, “SAP”, “Siebel”, “Oracle” kabi kompaniyalar ham rivojlana boshladi. Kompaniyalar mobil versiyalarini ishlab chiqishni boshladilar, ammo mobil qurilmalarning funksional imkoniyatlarining yetishmasligi sababli, ushbu turdagi dasturiy ta’minotga talab past bo’ldi. So’ngra, 2002-yilda, CRM xizmatlari bozorida asosiy raqobatchilardan biri bo’lib, “Microsoft” kompaniyasi “Microsoft Dynamics CRM” mahsulotini taqdim etdi. Kompaniyaning bozor o’rnini mustahkamlashiga yordam bergan asosiy afzallik, bu eski foydalanuvchilarga tanish bo’lgan ofis mahsulotlari va CRM yechimlarini yagona “Dynamics” brendi ostida birlashtirish edi. 2005-yilda esa




“Oracle” va “Siebel” kompaniyalari birlashdi, bu esa “Oracle CRM” mahsulotining rivojlanishiga katta turtki berdi¹⁵.

2-rasm. AQSHda CRM xizmatlari bozorini 2025 yilgacha rivojlantirish prognozi, milliard dollar¹⁶

Marketing texnologiyalari rivojlanishi bilan CRM tizimlari sohasida barqaror o‘shish kuzatilmoqda. Tahlilchilarning fikriga ko‘ra, global CRM bozorining umumiy daromadi 2025 yilga kelib ikki baravar ko‘payadi va taxminan 80 milliard dollarni tashkil etadi, bu 2019 yilga nisbatan qariyb 2 barobar tezroq sur‘atni ko‘rsatmoqda¹⁷. Shu bilan birga, tahlilchilar kichik va o‘rta biznes tomonidan mijozlarga xizmat ko‘rsatish tizimlaridan foydalanishda faolroq o‘shishni kutishmoqda. Bizning fikrimizcha, bu tendensiya dasturiy ta‘minot yetkazib beruvchilarning reklama aksiyalari va moslashuvchan narxlarini takliflari faol rivojlanishining natijasi bo‘lishi mumkin, bu qimmat dasturiy ta‘minotni sotib olish uchun katta miqdordagi mablag‘ga ega bo‘lmagan kichik kompaniyalar uchun foydalidir.

Yuqoridagi rasmda keltirilgan ma‘lumotlarga ko‘ra, kelajakda moliya-bank sektori, IT va savdo sohasida CRM xizmatlaridan foydalanishda ayniqsa faol o‘shish kuzatiladi degan xulosaga kelishimiz mumkin. CRM tizimlari, ayniqsa, moliyaviy operatsiyalar uchun arizalarni qayta ishlash va qabul qilishda, shuningdek, ijtimoiy tarmoqlar orqali mijozlarning xohish-istaklarini tahlil qilishda samaralidir. Albatta, asosiy tendensiya “SaaS” (Xizmat sifatida dasturiy ta‘minot) - asosan veb-brauzer yoki mobil ilova orqali amalga oshiriladigan bulutli mijozlarga xizmat ko‘rsatish modeliga bo‘lgan talabning ustunligi bo‘lib qolmoqda. Salesforce birinchilardan bo‘lib ushbu xizmatni ishga tushirdi, bu esa unga bozorda yetakchi o‘rinni egallashga katta yordam berdi.



3-rasm. O‘zbekiston Respublikasida turizmning YAIMdagi ulushi bo‘yicha ma‘lumotlar (mlrd. so‘mda)¹⁸

¹⁵ История развития CRM. [Электронный ресурс]. - режим доступа: <http://www.voit.pro/blog/istoriya-razvitiya-crm/>

¹⁶ <https://www.grandviewresearch.com/industry-analysis/customer-relationship-management-crm-market>


¹⁷ CRM Market Size, Share & Trends Analysis. [Электронный ресурс]. // CRM Report - Режим доступа <https://www.grandviewresearch.com/industry-analysis/customer-relationship-management-crm-market>

¹⁸ O‘zbekiston Respublikasi milliy statistika qo‘mitasi ma‘lumotlari asosida muallif ishlanmasi

So‘nggi yillarda O‘zbekiston sayyohlik sanoatini yanada rivojlantirish va mamlakatimizga kelayotgan xorijlik turistlar sonini oshirish borasida katta ishlar olib borildi. Turizm infratuzilmasini mustahkamlash, xizmat ko‘rsatish sifatini yaxshilash va malakali mutaxassislarni tayyorlashga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Buning eng muhim jihati, o‘tgan davr mobaynida turizm sohasini tartibga solish va uning huquqiy asoslarini mustahkamlash uchun zarur bo‘lgan normativ-huquqiy bazaning yaratilib, samarali faoliyat ko‘rsatishiga erishildi. O‘zbekiston Respublikasi milliy statistika qo‘mitasining ma’lumotlariga ko‘ra, 2019-2023 yillarda turizm sohasining rivojlanishiga oid asosiy ko‘rsatkichlar tahlil qilindi (4-rasm).

Ushbu statistik ma’lumotlari so‘nggi besh yil ichida mamlakatimizda turizm xizmatlari bozori tezkor ravishda o‘tib borayotganini ko‘rsatadi. 2023-yilda turizm tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo‘shilgan qiymat hajmi 5,895,516.4 milliard so‘mga yetib, oldingi yillarga nisbatan sezilarli darajada oshganini ko‘rish mumkin. Shuningdek, 2023-yilda turizm tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo‘shilgan qiymatning mamlakatning yalpi ichki mahsulotidagi (YAIM) ulushi 5,5% ni tashkil etdi. Turizm sohasida to‘g‘ridan-to‘g‘ri yaratilgan yalpi qo‘shilgan qiymat 2023-yilda 15,462.3 milliard so‘mni tashkil qilib, ushbu ko‘rsatkichning YAIMdagi ulushi 1,4% ni tashkil etgan.

2024 yilning yanvar-mart oylarida O‘zbekiston Respublikasiga kelgan xorijiy fuqarolar soni jami 1 519,4 ming nafarni tashkil etgan. 2023-yilga nisbatan ularning soni 2,1 % ga oshgan.



4-rasm. O‘zbekiston Respublikasida turizmda yaratilgan yalpi qo‘shilgan qiymati bo‘yicha ma’lumotlar (mlrd. so‘mda)¹⁹

Mamlakatimizda ishbilarmonlik turizmini rivojlantirish, iqtisodiy o‘rinishni ta’minlash va xalqaro hamkorlikni mustahkamlashda muhim o‘rin tutadi. Ishbilarmonlik turizmi, ya’ni biznes va konferensiya turizmi, nafaqat turistik sohani rivojlantirishga, balki iqtisodiyotning boshqa sohalariga ham sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Bu turizm turi, o‘z navbatida, mamlakatga xorijiy investitsiyalarni jalb

¹⁹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi ma’lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

qilish, yangi bozorlar ochish va xalqaro kompaniyalar bilan hamkorlikni kuchaytirish imkoniyatlarini yaratadi.

O‘zbekistonda turizm sohasidagi islohotlar va rivojlanish ko‘rsatkichlari so‘nggi yillarda izchil va tizimli ravishda amalga oshirilmoqda. Maqsad – turizmni iqtisodiyotning ustuvor va yirik tarmoqlaridan biriga aylantirish, mehmonlarni jalb qilish va ularga yuqori sifatli xizmatlarni taqdim etish. Bu yo‘nalishda amalga oshirilayotgan islohotlar va rivojlanish ko‘rsatkichlari turizmning strategik rivojlanishiga olib kelmoqda.

2-jadval

2019-2023-yillarda O‘zbekistonga turistik maqsadlarda kelgan chet el fuqarolarining safar maqsadlari bo‘yicha taqsimlanishi²⁰

Maqsadlar	Tashrif buyurganlar soni, ming kishi				
	2019	2020	2021	2022	2023
Qarindoshlarni yo‘qlash	5520,6	1066,7	197,4	536,2	1322,1
O‘qish	21,4	3,9	1,6	1,2	3,3
Davolanish	18,5	14,1	5,8	18,4	17,5
Bo‘sh vaqt va dam olish	143,9	113,5	22,4	37,2	108,1
Xizmat yuzasidan	13,1	8,7	9,7	13,7	27,0
Tijorat	11,9	7,1	2,0	2,9	9,7

Turizm sohasida kaoliyat yuritayotgan kichik biznes subyektlarining Xizmat darajasini baholashning umumiy miqdoriy usullaridan biri bu SERVQUAL usulidir²¹. Mazkur usul 5 ta bo‘lim va 22 ta mezondan iborat so‘rovga asoslangan. Har bo‘lim o‘z tarkibida bir qator so‘rovlarni birlashtiradi. Respondentlardan har bir mezonni baholashda o‘zlarining shaxsiy idrokiga qarab baholashlari so‘raladi. Baholash beshta darajani o‘z ichiga olgan Laykert shkalasi bo‘yicha amalga oshiriladi.

3-jadval

Laykert shkalasi bo‘yicha SERVQUAL usulidan foydalangan holda xizmat ko‘rsatish darajasini baholash uchun respondent so‘rovi²²

№	Baholangan sifat omillari/mezonlari	Ballar				
1.	Moddiylik	5	4	3	2	1
2.	Ishonchlilik	5	4	3	2	1
3.	Javobgarlik	5	4	3	2	1
4.	Ishonch uyg‘otish	5	4	3	2	1
5.	Empatiya	5	4	3	2	1

Servqual modeli xizmat sifati tahlilida quyidagi besh asosiy o‘lchov mezonini o‘z ichiga oladi:

1. Moddiylik – xizmat ko‘rsatish joyining tashqi ko‘rinishi, texnik vositalar, jihozlar, xodimlarning imidji va tashkiliy muhitning estetik holati. Bu o‘z ichiga

²⁰ O‘zbekiston Respublikasi Prezident xuzuridagi statistika agentligi rasmiy sayti <https://stat.uz/uz/default/choraklik-natijalar/saxifasining-tegishli-yillar-ma'lumotlari-asosida-muallif-tomonidan-tuzilgan>.

²¹ Simpson P. M., Siguaw J. A., & Baker T. L. A model of value creation, supplier behavior and their impact on reseller-perceived value // Industrial Marketing Management. 2001. № 30. P. 119–134.

²² Simpson P. M., Siguaw J. A., & Baker T. L. A model of value creation, supplier behavior and their impact on reseller-perceived value // Industrial Marketing Management. 2001. № 30. P. 119–134.

chakana savdo maydonining ichki qismi, Aloqa zonasi xodimlarining tashqi ko‘rinishi, reklama materiallari, bukletlar, stendlarning mavjudligini oladi.

2. Ishonchlilik – turistik korxonada tomonidan va‘da qilingan xizmatlarni o‘z vaqtida va sifatli bajarish darajasi. Bu o‘z ichiga belgilangan muddatda e‘lon qilingan xizmatlarni taqdim etish bo‘yicha majburiyatlarni bajarish, talab qilingan xizmatlarni bajarishda aniqlik, mijozlarning muammoli vaziyatlarini hal qilish, mijozning barqarorligi, amaliyotlarni bajarishda xato va noaniqliklar mavjud emasligi bokabilarni oladi.

3. Javobgarlik – xodimlarning mijoz so‘rovlariga tezkor va xushmuomala tarzda javob berish qobiliyati. Bu qism o‘z ichiga xodimlarning reaktivligi, xodimlar intizomi, xizmatlarni taqdim etishda samaradorlik, mijozlarning muammolarini hal qilishda yordam berish istagi, mijozlarning so‘rovlariga tezkor javob, kadrlar kompetentligini oladi.

4. Ishonch uyg‘otish – xodimlarning malakasi, bilim darajasi, ishonchlilik hissini uyg‘otish va xavfsizlikni ta‘minlash qobiliyati. Bu qism o‘z ichiga aloqa hududi xodimlarini mijozlar bilan aloqa o‘rnatishda ishonch va o‘zaro tushunish muhitini yaratishdagi imkoniyatlarini, xodimlar mijozlarga xushmuomalalik va do‘stona munosabatda bo‘lishini, xodimlar mijozlarga samarali xizmat ko‘rsatishni ta‘minlashi va to‘liq qo‘llab-quvvatlashni, xodimlar mijozlarga malakali maslahat berishlarini oladi.

5. Empatiya – mijozlarga shaxsiy e‘tibor, ularning ehtiyojlarini tushunish va individual yondashuv darajasi. Bu o‘z ichiga mijozga individual yondashuvni namoyish qilish, xodimlar o‘z mijozlarining muammolarini hal qilishlari, xodimlar o‘z mijozlarining ehtiyojlarini bilish darajalari, xodimlar mijozlar muammolarini hal qilishda shaxsan ishtirok etishlari va xodimlar mijozlarga axborot yordamini taqdim etadishlarini oladi.

So‘rovda qatnashayotgan respondentlar “Men butunlay rozi emasman (1)”, “Men rozi emasman (2)”, “Menga javob berish qiyin (3)”, “Men roziman (4)” va “Men butunlay roziman (5)” kabi javoblardan birini tanlash bilan qatnashadilar. Birinchidan, respondentlardan xizmat sifatini ularning kutganlariga muvofiq baholashlari so‘raladi, keyin mijoz haqiqiy idrokga muvofiq baho beradi.

Xizmat sifati ko‘rsatkichi formula yordamida hisoblanadi.

$$Q = P - E \quad (1)$$

bu yerda;

Q (sifat) – sifat darajasi (bal).

P – mijozning haqiqiy bahosi.

E – mijozning kutgan bahosi.

- Agar $Q > 0$ bo‘lsa, xizmat sifati yaxshi.
- Agar $Q = 0$ bo‘lsa, xizmat sifati kutilgan darajada.
- Agar $Q < 0$ bo‘lsa, xizmat sifati past.

Shu nuqtai nazardan, SERVQUAL modeli yordamida turistik xizmatlarning sifat darajasini baholash, korxonada faoliyatidagi kuchli va zaif jihatlarni aniqlash hamda ilmiy asosda taklif va tavsiyalar ishlab chiqish dolzarb masala sifatida qaraladi. Model asosida o‘lchov jarayoni kutilgan xizmat darajasi hamda mijoz tomonidan amaldagi taasuroti darajasi o‘rtasidagi tafovutni aniqlashga asoslanadi.

Ushbu tafovut aniqlanib, xizmat sifatining real bahosini belgilaydi. Mazkur mezonlar asosida o'tkazilgan baholash natijalari turizm korxonalarining xizmat ko'rsatish tizimidagi ustuvor jihatlar va rivojlanishga muhtoj yo'nalishlarni aniqlash imkonini beradi. Shu orqali, korxonalar o'z faoliyatini mijozlar ehtiyojlariga moslashtirish, xizmat sifati va mijoz sodiqligini oshirish hamda bozorda raqobatbardoshlikni mustahkamlash yo'lida ilmiy asoslangan strategik qarorlar qabul qilishi mumkin.

Battuta Travel, UzTrip va Dilrabo Travel MChJ misolida xizmat ko'rsatish sifatining bahosi SERVQUAL modeli mezonlari asosida tahlil qilinadi. Tadqiqot doirasida Battuta travel, UzTrip va Dilrabo Travel turistik korxonalari faoliyati 120 nafar mijoz so'rovnomasi asosida baholandi.

4-jadval

Battuta Travel MChJ, UzTrip MChJ va Dilrabo Travel MChJ korxonalarida xizmat sifati tahlili (SERVQUAL modeli asosida)²³

№	Mezonlar	O'rtacha kutilgan baho (E)	Amalda sezilgan baho				Farq (SQ)
			Battuta Travel	UzTrip	Dilrabo Travel	Amalda o'rtacha sezilgan baho (P)	
1.	Moddiylik	4,6	4,4	4,1	4,5	4,3	-0,3
2.	Ishonchlilik	4,7	4,5	4,3	4,6	4,4	-0,3
3.	Javobgarlik	4,5	4,3	4,0	4,4	4,2	-0,3
4.	Ishonch uyg'otish	4,8	4,6	4,4	4,7	4,5	-0,3
5.	Hamdardlik	4,6	4,3	4,1	4,4	4,2	-0,4
O'rtacha SERVQUAL		4,6	4,4	4,2	4,5	4,3	-0,3

Natijalar tahlili shuni ko'rsatdiki, barcha korxonalarda kutilgan va amalda sezilgan xizmat darajalari o'rtasida o'rtacha -0,3 ball tafovut mavjud. Bu mijozlar umidining to'liq qondirilmaganini, biroq xizmat sifati umumiy tarzda yaxshi darajada ekanini ko'rsatadi. Dilrabo Travel MChJ kompaniyasi eng yuqori o'rtacha bahoga (4,5 ball) ega bo'lib, mijozlarga individual yondashuv va ishonch uyg'otish mezonlarida ustunlikka ega. Battuta Travel MChJ korxonasida xizmat sifati barqaror, lekin javobgarlik va hamdardlik mezonlarida biroz pasayish kuzatilgan. UzTrip MChJ kompaniyasi moddiylik va javobgarlik mezonlarida pastroq bahoga ega bo'lib, xizmat standartlarini modernizatsiya qilish zarurligi aniqlangan.

5-jadval

Baholash bo'yicha umumiy natijalar tahlili²⁴

Korxonona nomi	O'rtacha amalda sezilgan baho (P)	Kutilgan baho (E)	Farq (P - E)	Sifat darajasi (%) (Q)	Reyting
Dilrabo Travel MChJ	4,5	4,6	-0,1	-2,6 %	1-o'rin

²³ Muallif ishlanmasi

²⁴ Muallif ishlanmasi

Battuta Travel MChJ	4,4	4,6	-0,2	-4,7 %	2-o‘rin
UzTrip MChJ	4,2	4,6	-0,4	-9,9 %	3-o‘rin


Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, xizmat sifati jihatidan Dilrabo Travel MChJ kompaniyasi yetakchi o‘rinni egalladi. Ushbu korxonada mijozlar bilan interaktiv muloqot, xodimlarning javobgarlik madaniyati, va shaxsiylashtirilgan xizmat yondashuvi samaradorlikni ta‘minlamoqda. Ularning xizmat sifati kutilgan darajadan atigi 2,6% past, bu esa xizmatning barqarorlik va mijoz sodiqligiga yaqin darajada ekanini ko‘rsatadi. Battuta Travel MChJ korxonasida xizmat sifati nisbatan yuqori (4,4 ball), biroq hamdardlik va moddiylik mezonlarida farq seziladi. Bu xodimlar malakasini oshirish va xizmat madaniyatini yaxshilash orqali bartaraf etilishi mumkin. UzTrip MChJ korxonasida xizmat sifati pastroq (4.2 ball), bu esa mijozlar bilan aloqa jarayonida teskari bog‘lanish yetarli emasligi, hamda xizmat jarayonlarining raqamlashtirilmaganligi bilan izohlanadi. Kompaniya ichki boshqaruv tizimida sifat menejmenti mexanizmlarini joriy etish orqali raqobatbardoshlikni oshirishi mumkin.

Dissertatsiyaning **“Kichik biznesda mijozlar bilan munosabatlarning strategik yo‘nalishlarini rivojlantirish”** deb nomlangan uchinchi bobi o‘zining nazariy asoslari va amaliy yondashuvlari bilan alohida ilmiy ahamiyat kasb etadi. Ushbu bobda kichik biznes subyektlarida iqtisodiy samaradorlikni oshirish orqali mijozlar bilan munosabatlarni takomillashtirishga oid muhim yo‘nalishlar atroflicha tahlil qilingan. Ayniqsa, mijoz ehtiyojlariga tezkor va sifatli javob qaytarish, ularning sadoqatini mustahkamlash hamda xizmat ko‘rsatish sifatini yaxshilash orqali barqaror rivojlanishga erishish masalalari asosli takliflar bilan boyitilgan.

Mazkur bobda raqamli texnologiyalarning kichik biznes faoliyatida mijozlar bilan o‘zaro aloqalarni samarali rivojlantirishdagi o‘rni alohida o‘rin tutadi. Xususan, CRM tizimlari, mobil ilovalar, sun‘iy intellekt asosida yaratilgan xizmatlarni avtomatlashtirish texnologiyalari, elektron tahlil vositalari hamda mijoz xatti-harakatlarini prognozlash uslublarining amaliy ahamiyati keng tahlil qilingan. Ushbu raqamli yechimlar kichik biznes korxonalarining raqobatbardoshligini oshirishda muhim strategik vosita sifatida baholangan.

Bundan tashqari, kichik biznesda mijozlar bilan munosabatlarni rivojlantirishga ta‘sir etuvchi omillar — xizmat sifati, marketing strategiyasi, narx siyosati hamda mijoz fikr-mulohazalarini tahlil qilish mexanizmlari — o‘zaro bog‘liqlikda ko‘rib chiqilgan. Ayniqsa, korxonada faoliyatining iqtisodiy natijalari va mijozlar bilan o‘zaro aloqalar sifati o‘rtasidagi munosabatni aniqlash maqsadida olib borilgan ekonometrik tahlillar bobning ilmiy asoslanganligini yanada kuchaytirgan. Regression tahlil usuli yordamida mijozlar bilan ishlash samaradorligi va korxonaning iqtisodiy ko‘rsatkichlari o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik aniqlangan bo‘lib, bu tadqiqotga mustahkam statistik asos yaratgan.

Rivojlanish va integratsiyani boshqarish mexanizmini faollashtirgandan so‘ng, turistik oqimlarning yo‘nalishi chiquvchidan ichki va kiruvchiga o‘zgaradi, deb aytish mumkin.



5-rasm. Kichik biznes korxonalarida mijozlar bilan ishlash tizimini xaridorlar qoniqishlarini tashxislash va rivojlantirish algoritmi²⁵

²⁵ Muallif ishlanmasi

Shunday qilib, biz Internet vositalaridan foydalangan holda reklama qilish mumkin va zarur bo'lgan tovarlar va xizmatlarni to'g'ri joylashtirish bilan an'anaviy usullarga qaraganda samaraliroq degan xulosaga kelishimiz mumkin. Faqatgina ushbu vositalar qobiliyatli qo'llarda bo'lishi muhimdir. Sayyohlik agentliklarini o'z ichiga olgan kichik korxonalar rahbarlari zamonaviy boshqaruv vositalaridan to'liq foydalanishlari kerak - ulardan biri o'zgartirilgan ma'lumot manbai sifatida Internetdir. Internet yordamida sayyohlik agentliklari yangi maqsadli segmentni aniqlash uchun ham ma'lumot oladi.

Taklif qilinayotgan korxonaning mijozga yo'naltirilgan modelida jarayonlarning uchta asosiy darajasi ajralib turadi: birinchi daraja - axborot almashinuvi, shu jumladan yig'ish, tarqatish va ma'lumotlarni qayta ishlash; ikkinchisi analitik daraja bo'lib, u birgalikdagi faoliyat uchun mijozlarni baholash, monitoring, baholash (ishlab chiqilgan KPI yordamida) va mijozlar oqimini sozlashni o'z ichiga oladi; va, nihoyat, uchinchi - moslashuv, bu tovarlar va xizmatlarni moslashtirish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish, mijozlarning fikr-mulohazalarini muvofiqlashtirish va nazorat qilishni o'z ichiga oladi. Ushbu darajalar o'rtasidagi munosabatlar, shuningdek, bozor o'zaro ta'sirining dinamikasi va muvofiqlashtirilishini tuzadigan mijozlar bilan o'zaro munosabatlar shaklda ko'rsatilgan. Bizning fikrimizcha, bu jarayonlar o'rtasidagi munosabatlariga ega bo'lgan yaxlit tizimning mavjudligi, bu bizga munosabatlar doirasida korxonaning mijozga yo'naltirilganligi haqida gapirishga imkon beradi, bu nafaqat mijoz to'g'risidagi ma'lumotlarni to'plash va tahlil qilish faoliyatini, balki mijozlar oqimini tanlashning tegishli boshqaruv mexanizmlarini izchil shakllantirishni ham nazarda tutadi.


Quyidagi 7-rasmda keltirilgan model ilgari muhokama qilingan mijozlarga yo'naltirilgan tushunchalarning asosiy tamoyillarini: o'zaro ta'sirning bir tomonlama tabiati, korxonaning mijozlarga yo'naltirilganligini ta'minlaydigan asosiy jarayonlar ro'yxati, shuningdek, tranzaksiya marketingi doirasida qiymat yaratish bosqichlari umumlashtiradi. Korxonaning mijozning ehtiyojlari va afzalliklari haqidagi ma'lumotlarni to'plash, qayta ishlash va tahlil qilish orqali yangi mahsulotlarni yaratish va mavjud mahsulotlarni takomillashtirish sohasida yanada samarali ishlaydi va innovatsion faoliyatni amalga oshiradi. Natijada, bu mijozga xizmat ko'rsatish xarajatlarining qisqarishiga va kompaniya va mijoz o'rtasida taqsimlanadigan yaratilgan qiymat miqdorining oshishiga olib keladi.

Mijozlar talablariga tezkor javob berish orqali moslashuvchanlikni oshirish: CRM tizimlari orqali mijozlar talablari tezda aniqlanib, ularga mos ravishda strategiyalar ishlab chiqiladi. Mijozlarga tezkor javob berish va ularning talablarini qondirish biznesni bozordagi o'zgarishlarga moslashishga yordam beradi, bu esa ularning qoniqishini va daromad manbalarini oshiradi.

Bozor ulushini oshirish. CRM kompaniyaga bozordagi mijozlar ehtiyojlarini yaxshiroq tushunish va raqobatchilarga nisbatan ustunlikka ega bo'lish imkonini beradi. Bu orqali yangi mijozlarni jalb qilish va bozor ulushini oshirish imkoniyati yaratiladi.

Iqtisodiy va moliyaviy jihatdan qaraganda, CRM kompaniyaga uzoq muddatli

barqarorlik va moliyaviy o‘shishni ta’minlash imkonini beradi. Mijozlar bilan yaqin aloqalar o‘rnatish, ularni saqlab qolish va ularning ehtiyojlarini tushunish kompaniyaning bozordagi raqobatbardoshligini oshiradi va moliyaviy samaradorligini yaxshilaydi.



6-rasm. Ijobiy marketingda mijozlarga yo‘naltirilganlikning konseptual modeli²⁶

Quyidagi “Kichik biznesda mijozlar bilan munosabatlarni boshqarish strategiya”laridan qaysi biri samarali hisoblanadi? Buning uchun 4 ta strategiya taklif etilmoqda:

1. Eko-CRM va barqaror turizm strategiyasi. Uning mohiyati CRM orqali mijozlarga ekologik toza xizmat va barqaror sayohat mahsulotlarini taklif qilish hisoblanadi.

2. Mijoz sayohatini raqamli modellashtirish strategiyasi. Uning mohiyati mijozning sayohat oldidan to undan keyingi barcha nuqtalardagi tajribasini raqamli kuzatish, tahlil qilish va shaxsiylashtirish orqali xizmat sifati va qoniqish darajasini oshirish hisoblanadi.

3. Ta’minot zanjiriga integratsiyalashgan CRM strategiyasi. Uning mohiyati

²⁶ Muallif ishlanmasi

Mehmonxona, transport, gid, ovqatlanish va ekskursiya xizmatlarini yagona CRM orqali bog‘lash orqali turistga kompleks xizmat ko‘rsatish hisoblanadi.

4. Tahlil va prognozga asoslangan dinamik narx strategiyasi. Uning mohiyati CRM ma‘lumotlari va talab-prognoz modellari orqali narx siyosatini real vaqtda avtomatik moslashtirish hisoblanadi

Ekspertlar tomonidan mazkur savolga javob topish maqsadida “5” ballik baholash shkalasi qabul qilindi va ular tomonidan ustuvor faoliyat yo‘nalishlariga quyidagi ballar belgilandi.

Mazkur strategiyalarni birdaniga integrativ tartibda ham amalga oshirish mumkin. Lekin bu turistik korxonalar xarajatlarini ortib ketishiga va bozordagi mijozlarga qaratilgan fokuslarni yo‘qolib qolishiga olib keladi. Shuning uchun ekspertlardan bularning birini tanlab, korxonalar uchun tadbiq etish tavsiya etildi.


6-jadval

Kichik biznesda mijozlar bilan munosabatlarni boshqarish bo‘yicha taklif etilgan strategiyalarga ekspertlar tomonidan ko‘rsatilgan ballar²⁷

Baholanayotgan mezonlar → Ekspertlar raqami ↓	Eko-CRM strategiyasi	Raqamli modellashtirish strategiyasi	Integratsiyalashgan CRM strategiyasi	Dinamik narx strategiyasi
1	4,5	4,5	5,0	3,5
2	5,0	5,0	4,0	4,0
3	4,5	4,5	4,0	4,0
4	5,0	4,0	4,0	4,0
5	5,0	4,0	4,0	4,0

Ta’kidlash joizki, kichik biznesda mijozlar bilan munosabatlarni boshqarish bo‘yicha taklif etilgan strategiyalarga ekspertlar tomonidan ko‘rsatilgan eng maksimal ball yoki rang (r_{max})da aks ettiradi.

Ya’ni, agar qaysi strategiya bo‘yicha o‘rtacha ball yuqori bo‘lsa (\bar{r}_{max}), ushbu mezon asosida kichik biznesda mijozlar bilan munosabatlarni boshqarish bo‘yicha taklif etilgan strategiya samarali ekanligini ifodalaydi (8-rasm).



7-rasm. Kichik biznesda mijozlar bilan munosabatlarni boshqarish bo‘yicha taklif etilgan strategiyalarga ekspertlar tomonidan ko‘rsatilgan ballarning

²⁷ Ekspertlar ma‘lumotlari asosida muallif tomonidan shakllantirilgan.

o'rtachasi, $(\bar{r}_i)^{28}$

Grafikdan ham ko'rinib turibdiki, taklif etilgan kichik biznesda mijozlar bilan munosabatlarni boshqarish strategiyalari orasida 1-strategiya Eko-CRM va barqaror turizm strategiyasiga ekspertlar tomonidan ko'rsatilgan o'rtacha ball 4,6 ni tashkil etgan.

Shu o'rinda mamlakatimizdagi turistik korxonalarining 2020-2024yillar davomida pul aylanmasi tahlili amalga oshirilgan,

7-jadval

Korxonalarining moliyaviy ko'rsatkichlari²⁹

Korxonona nomi	Yil	Pul aylanmasi	Ishchi soni
Muniyr Travel Group XK	2020	974 821 112,2	4
	2021	1 142 666 824	4
	2022	4 650 021 773	4
	2023	5 104 497 316	4
	2024	6 410 640 649	2
Fergana Avia Travel MChJ	2020	1 039 145 645	40
	2021	2 627 893 011	38
	2022	2 434 104 080	30
	2023	3 216 076 451	28
	2024	3 822 245 868	23
Grand Avia Travel OK	2020	894 792 401,8	4
	2021	2 839 879 926	4
	2022	1 653 315 961	5
	2023	1 684 427 330	6
	2024	1 198 375 487	4
Dilrabo Travel OK	2020	0	0
	2021	0	0
	2022	275 189 633,9	1
	2023	569 640 738,8	2
	2024	1 016 947 867	4
Havo-Sayyoh Travel MCHJ	2020	278 767 442,5	13
	2021	177 355 915,1	10
	2022	371 565 499,3	8
	2023	331 073 632	7
	2024	262 704 170	6
Kadrus Vip Travel MCHJ	2020	0	0
	2021	0	0
	2022	278 442 819,1	5
	2023	274 892 946,7	5

²⁸ Muallif hisob-kitoblari.

²⁹ Korxonalar ma'lumotlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

	2024	164 928 572	5
--	------	-------------	---

Tahlillar asosida shuni ta’kidlash lozimki, turistik korxonalar pul aylanmasida ijobiy o‘rta tendensiyasi kuzatilgan. Bunga sabab sifatida mamlakatimizda turizm sohasidagi imkoniyatlar va aholining boshqa davlatlarga sayohatga chiqishga bo‘lgan qiziqishi kuchayganligi sanaladi.

Mijozlar umrbo‘yi qiymati (Customer Lifetime Value, CLV) – bu mijozning butun umri davomida kompaniyaga keltirishi mumkin bo‘lgan daromadning umumiy bahosi. CLV kompaniyaning mijozlarga qaratilgan strategik qarorlarini ishlab chiqishda, resurslarni maqsadli taqsimlashda va marketing xarajatlarini samarali boshqarishda asosiy ko‘rsatkich hisoblanadi

Mijozlar qiymatini oshirishning afzalliklari:

Tizimli daromad manbai: CLV yuqori bo‘lgan mijozlar orqali kompaniya uzoq muddatli va barqaror daromad manbaiga ega bo‘ladi.

Resurslarning samarali taqsimlanishi: Kompaniya CLV ko‘rsatkichidan foydalanib resurslarni to‘g‘ri taqsimlay oladi. Bu orqali kompaniya yuqori qiymatga ega mijozlarga ko‘proq e’tibor qaratib, ularni saqlab qolishga harakat qiladi.

Foydani oshirish va xarajatlarni qisqartirish: Uzoq muddatli mijozlardan foyda olish natijasida marketing xarajatlari qisqartirilib, umumiy daromad va rentabellik oshadi.

Mijozlar qiymatini oshirishni (Customer Lifetime Value, CLV) hisoblashda turli formulalar va ko‘rsatkichlardan foydalaniladi. Ko‘pincha, CLV formulasi kompaniyaning sohasi, biznes modeli va mijozlar bilan munosabatlarining uzoq muddatli bo‘lish darajasiga qarab tanlanadi. Asosiy formulalar va ularda qo‘llaniladigan ko‘rsatkichlar quyida keltirilgan:

1. Qisqartirilgan oddiy formula. Eng oddiy CLV formulasi bir mijozdan o‘rtacha olinadigan daromadni o‘sha mijozning uzoq muddatli aloqasining taxminiy davriga ko‘paytiradi:

$$CLV = AOV \times FT \times LT \quad (1)$$

Bu yerda:

AOV (Average Order Value) – bir xarid uchun o‘rtacha daromad;

FT (Frequency of Transactions) – muayyan muddatda (bir yil yoki bir oy) xarid qilishlar soni;

LT (Customer Lifetime) – mijozning umumiy aloqada bo‘lish muddati (odatda yillarda).

CLV - bu mijozdan ma’lum vaqt oralig‘ida olingan umumiy hissa marjasi, bu mijozga cheklangan miqdordagi takroriy sotuvlar natijasida, xarajatlarni hisobga olmaganida. CLVni kompaniya ma’lum bir mijozdan kompaniya bilan munosabatlari davomida olishni kutayotgan kelajakdagi sof foydaning hozirgi qiymati sifatida aniqlash mumkin.

CLV dan foydalanish maqsadlarini hisobga olish muhim:

- qimmatli mijozlarni jalb qilish;
- mijozlarning “qiymatini” oshirish;
- mijozlarning sodiqligini oshirish;

– mijozlar bilan munosabatlarni optimallashtirish.

8-jadval

Mijozning umr bo‘yi qiymati (CLV) tahlili³⁰

№	Ko‘rsatkichlar	O‘lchov birligi	Dilrabo Travel	Battuta Travel	UzTrip	Muniyr Travel Group	Ferghana Avia Travel
1	Bir xarid uchun o‘rtacha daromad (AOV)	O‘zbek so‘mi	2100000	1800000	1200000	2000000	1400000
2	Muayyan muddatda (bir yil yoki bir oy) xarid qilishlar soni (FT)	Yiliga haridlar soni	1,7	2,1	2,5	1,6	2,4
3	Mijozning umumiy aloqada bo‘lish muddati (LT)	Yil	3	4	2	2	2
4	Mijozning umr bo‘yi qiymati (CLV), (1q*2q*3q)	O‘zbek so‘mi	10710000	15120000	6000000	6400000	6720000

Mijozning hayot sikli qiymati ko‘rsatkichining tahlili shuni anglatadiki, korxonalar mijozlar bilan munosabatlarni o‘rnatishda uzoq muddatli maqsadlarga e‘tibor qaratishlari va mijozning kompaniya bilan munosabatlarining butun davri davomida ushbu munosabatlar natijasida olingan foydani hisobga olishlari kerak. Shunday qilib, korxonalar mijozdan uzoq muddatli foyda olishga e‘tibor qaratishlari kerak³¹.

Mijozlarni saqlab qolishlik koeffitsiyenti mijozlarni yo‘qotish darajasiga ham asoslanadi CLV. Bu metodda mijozlarni saqlab qolish koeffitsiyenti (Retention Rate) va mijozlarni yo‘qotish (Churn Rate)dan foydalaniladi. Ushbu ko‘rsatkichlar bilan hisoblangan formula quyidagicha bo‘ladi:

$$CLV = \frac{AOV \times FT \times Retention Rate}{1 - Retention Rate} \quad (3)$$

Bu yerda Retention Rate har bir davrda mijozlarni saqlab qolish darajasini ko‘rsatadi. Agar mijozlarning uzoq muddatli saqlanish darajasi yuqori bo‘lsa, ulardan keladigan daromad yuqori bo‘ladi.

Qo‘llaniladigan ko‘rsatkichlar

AOV (Average Order Value) – mijozning o‘rtacha xaridi qiymati.

Frequency of Transactions (FT) – mijozning xaridlar soni.

Customer Lifetime (LT) – mijoz bilan munosabatlar davomiyligi.

Retention Rate – mavjud mijozlarni saqlab qolish darajasi.

Churn Rate – ma‘lum muddatda yo‘qolgan mijozlar ulushi.

Profit Margin (P) – umumiy daromaddagi foyda ulushi.

³⁰ Korxonalar ma‘lumotlari asosida muallif ishlanmasi

³¹ Moller K., Halinen A. Relationship marketing theory: Its roots and direction // Journal of Marketing Management. 2000. № 16. P. 29– 54.

Acquisition Cost (AC) – yangi mijozni jalb qilish xarajatlari.
Discount Rate (d) – kelgusidagi daromadlarning hozirgi qiymati.

9-jadval

Mijozni saqlab qolish koeffitsiyenti tahlili³²

№	Ko‘rsatkichlar	Dilrabo Travel	Battuta Travel	UzTrip	Muniyr Travel Group	Ferghana Avia Travel
1	Davr oxiridagi mijozlar soni (E), nafar	620	460	390	360	445
2	Davr davomida jalb qilingan yangi mijozlar soni (N), nafar	200	150	120	180	100
3	Davr boshidagi mijozlar soni (S), nafar	500	400	350	300	420
4	Mijozni saqlab qolish koeffitsiyenti, (1q-2q)/3q)*100, foiz	84%	78%	77%	60%	82%

CLV konsepsiyasini vaqt o‘tishi bilan mijozning qiymatini bashorat qilish kabi tushuncha mavjud, bu konsepsiya doirasini sezilarli darajada kengaytiradi va mijozlar sonini hisoblashdan ko‘proqdir. Masalan, talabalar uchun bank hisobvaraqlarini ochish uchun maxsus shartlar bo‘lishi mumkin. Qisqa muddatda bu takliflar foydasiz bo‘lishi mumkin, ammo bu banklarga kelajakda ushbu toifadagi mijozlarning raqobatchilarga o‘tishini oldini olishga imkon beradi.

CLV kompaniyaning mijozlarga qaratilgan strategik qarorlarini ishlab chiqishda, resurslarni maqsadli taqsimlashda va marketing xarajatlarini samarali boshqarishda asosiy ko‘rsatkich hisoblanadi. Mijoz qiymatini oshirish orqali kompaniya mijozlar bilan mustahkam va uzoq muddatli munosabatlarni qurib, ularni saqlab qolish, qayta-qayta xaridlarni ko‘paytirish va, shu bilan birga, daromadni barqarorlashtirishga erishadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

1. Kichik korxonalarda mijozlar bilan munosabatlarni samarali yo‘lga qo‘yish raqamli texnologiyalarsiz amalga oshmaydi. CRM tizimlariga integratsiya qilingan elektron pochta, IP-telefoniya, ijtimoiy tarmoqlar va chat-botlar mijoz bilan real vaqtda aloqa qilishni ta‘minlaydi. Bu esa mijoz so‘rovlarini tezkor qayta ishlash va xizmat ko‘rsatish sifatini yaxshilash imkonini yaratadi. Shu bilan birga, sun‘iy intellekt va mashinani o‘rganish texnologiyalaridan foydalanish mijoz xulqini bashorat qilish, segmentlar bo‘yicha avtomatik tavsiyalar berish va marketing xarajatlarini optimallashtirish imkonini beradi. Innovation CRM platformalari mijoz ma‘lumotlarini tahlil qilish orqali har bir xaridorga shaxsiylashtirilgan xizmat ko‘rsatishni ta‘minlaydi. Bu kichik biznes uchun nafaqat daromad o‘shirishini, balki mijozlar bilan empatik va barqaror munosabatlarni shakllantirishni ham ta‘minlaydi.

2. Kichik biznesda mijozlar bilan munosabatlarni shakllantirishda psixologiya va bozor muhiti o‘zaro bog‘liq omillar sifatida muhim o‘rin tutadi. F.Kotler

³² Korxonalar ma‘lumotlari asosida muallif ishlanmasi

modelida ta'kidlanganidek, xaridor qaror qabul qilishda nafaqat iqtisodiy rag'batlarga, balki shaxsiy, madaniy va ijtimoiy ta'sirlarga ham javob qaytaradi. Shuning uchun kichik biznes sub'yektlari uchun mijozning emosional xolati va qiymatlar tizimini anglash CRM strategiyasining markaziy qismiga aylanishi lozim. Iste'molchi xulqini ilmiy tahlil qilish orqali mijozning ehtiyojlari, qoniqish darajasi va sodiqlik tendensiyalarini aniqlash mumkin. Bozordagi raqobat shiddatli sharoitda bu bilimlar marketing faoliyatini individuallashtirish, mijozlarning ishonchini mustahkamlash va uzoq muddatli hamkorlikni yo'lga qo'yish imkonini beradi. Natijada, mijozni foyda manbai sifatida emas, balki strategik hamkor sifatida ko'rish biznes madaniyatining yangi bosqichiga olib chiqadi.

3. Yaponiya tajribasidagi Keiretsu asosida klasterga mos o'zbek modelini joriy etishda har bir tuman yoki boshqa hudud birliklari darajasida taklifni amalga oshirish uchun hududiy klasterlar tashkil etiladi. Bu klasterlar hududlardagi ishlab chiqaruvchi, xizmat ko'rsatuvchi va logistika kompaniyasini qamrab oladi. Mahalla darajasidagi CRM-ma'lumotlar platformasi orqali ular o'zaro ma'lumot almashadi va mijozlar haqida yagona ma'lumotlar bazasi yaratiladi. Mazkur taklifni amalga oshirish uchun raqamli CRM tizimi (maxsus "MahallaCRM" platformasi) orqali yetkazib beruvchilar, ishlab chiqaruvchilar va xizmat ko'rsatuvchilar o'rtasida ma'lumotlar ayirboshlanadi. IoT sensorlar va ma'lumot analitikasi yordamida mahsulot sifati, yetkazish vaqti va mijoz qoniqishi real vaqtda kuzatiladi. Taklif natijasida mijozlarning takroriy savdolari darajasi ortib, ta'minot zanjiridagi uzilishlar integratsiyani ortishi hisobiga kamayadi. Shuningdek, mijozlar qoniqishi ortib tannarx xarajatlari kamayadi.

4. Yevropa tajribasi asosida hissiy CRM va mijoz sadoqati dasturini joriy etish uchun Mijoz sadoqati dasturi milliy indeksi joriy etish taklif etiladi. Mazkur indeksni joriy etilganidan so'ng kichik biznes korxonalarini uchun har yillik "Mijoz sadoqatini audit" tizimi ishlab chiqilishga zarur. Mazkur tizim orqali indeksning amaldagi faoliyati nazoratga olinadi. CRM tizimlariga qayta aloqa va hissiy fikrlarni tahlil qilish uchun modullar ham qo'shish kerak. Mazkur modullar aniq algoritmlar asosida nazorat qilib boriladi. CRM tizimida har bir mijozning hissiy profili yaratiladi. Bu sun'iy intellekt yordamida amalga oshiriladi. Mijoz qoniqishi darajasi zaruriyatga qarab oyda bir marta hisoblanadi. Shuningdek, ijtimoiy tarmoqlardagi mijoz fikrlari tahlil qilinadi. Ushbu taklif natijasida mijozlar so'rovlariga javob berish vaqti qisqarib, mijozlarni yo'qotish darajasi kamayadi hamda mijozlar sadoqati ortadi.

5. Tahlil natijalariga ko'ra, SERVQUAL modeli turizm sohasida xizmat sifatini kompleks baholashda samarali vosita bo'lib, u mijoz kutgan va amalda sezgan sifat o'rtasidagi tafovutni aniq o'lchash imkonini beradi. Bu yo'nalishda olib borilgan tahlillar ko'rsatadiki, Dilrabo Travel MChJ korxonasi xizmat sifatida yetakchilikni saqlab qolgan, bu ularning inson omiliga asoslangan xizmat strategiyasi bilan bog'liq. Shuningdek, xizmat sifati indeksi 4,4 dan yuqori bo'lgan korxonalar yuqori darajadagi mijoz sodiqligini ta'minlay olishini ham ko'rish mumkin. Nadqiq etilgan korxonalarda xizmatning empatiya va javobgarlik komponentlarini mustahkamlashga ehtiyoji mavjudligi kuzatildi. Xizmat sifatini oshirish uchun

raqamli boshqaruv tizimlarini joriy etish, mijoz tajribasi bo'yicha doimiy monitoring mexanizmini yo'lga qo'yish tavsiya etiladi.

6. Kichik biznes va xizmat ko'rsatish sohasida raqamli platformalardan foydalanish CRM strategiyasining asosiy tendensiyasiga aylanmoqda. 2023 yilda turizm korxonalarining 85 foizi mijoz fikrlarini tahlil qilish va xizmat sifatini yaxshilash uchun mobil ilovalar va onlayn bronlash tizimlarini joriy etgan. Bunda CRM platformalari orqali mijozlar so'rovlariga real vaqtda javob berish, ularning ehtiyojlarini bashorat qilish va shaxsiylashtirilgan takliflarni avtomatik ravishda yaratish amaliyoti shakllanmoqda. Shuningdek, mijozlar bilan onlayn muloqotni kengaytirish natijasida "return customer" ko'rsatkichi — ya'ni xizmatdan qayta foydalanuvchilar ulushi — 30 foizgacha o'sgan. Bu raqamlar CRM tizimlarining raqamli ekotizimdagi integratsiyasini va kichik biznesda inson-markazli boshqaruv modelini yaratishini anglatadi. Shu bilan birga, raqamlashuv xizmatlarning shaffofligini oshiradi va marketing xarajatlarini qisqartiradi.

7. Kichik biznesda mijoz xulqini ilmiy asosda o'rganish marketing strategiyasining samaradorligini oshiradigan hal qiluvchi omildir. Mijozlarning demografik xususiyatlari, safar maqsadlari va qoniqish darajasi bo'yicha klasterli tahlillar ularning xulq-atvorini to'g'ri prognoz qilish imkonini bermoqda. Masalan, turizm sohasida "qarindoshlarni ziyorat qilish" va "dam olish" maqsadida kelgan turistlar ulushining o'sishi mijozlar ehtiyojiga moslashtirilgan xizmatlar strategiyasini talab etadi. Shu bilan birga, CRM orqali yig'ilgan ma'lumotlar asosida individual marketing paketlari ishlab chiqish natijasida xaridlar davriyligi va qiymati oshmoqda. Bu jarayonlarda mijoz xulqini tahlil qilish kichik biznes uchun bozorni segmentlash, tavakkallikni kamaytirish va foydalilikni oshirish imkonini yaratadi. Natijada, CRM tizimi mijoz xulqini prognoz qilish va strategiyani o'z vaqtida moslashtirishda muhim raqobat ustunligiga aylanadi.

8. Mijozga e'tibor qaratish qobiliyati barcha jarayonlarning yagona tizimga bog'lanishi va muvofiqlashtirilgan o'zaro ta'siri bilan ta'minlanadi. Mijozlarga e'tibor qaratishning alohida, tarqoq elementlarining mavjudligi ma'lum ijobiy samara beradi, ammo samarali munosabatlarni boshqarish, shuningdek, korxonaning mijozga doimiy e'tiborini qaratish haqida gapirishga imkon bermaydi. Turli jarayonlarni yagona tizimga integratsiya qilish mijozlarga yo'naltirilgan korxonani qurish uchun birinchi qadamdir.

9. Turistik biznes tashkilotlari, iste'molchilar bilan munosabatlarni tizimlashtirishlari kerak, chunki statistik ma'lumotlarga ko'ra, kompaniya daromadining 80 foizi mijozlarning 20 foizidan keladi, mijozlarning raqobatchilarga ketishini yiliga 5% ga kamaytirish daromadlarning 25% dan ortiq o'sishiga olib keladi, yangi xaridor bilan bitim tuzishga mavjud mijozlar bilan o'xshash shartnoma tuzishga qaraganda 5-10 barobar ko'proq kuch va pul sarflanadi, qoniqarli mijoz muvaffaqiyatli xarid haqida o'rtacha 5 ta do'stiga, norozi mijoz esa kamida 10 ta do'stiga aytib beradi hamda korxonaning mavjud mijozlarining 50% ga yaqini ular bilan samarasiz o'zaro aloqalar tufayli foyda keltirmaydi

10. Mijozlarga xizmat ko'rsatish va turistik mahsulotni sotish uchun korxonalar tomonidan tanlangan usuldan qat'iy nazar, mijozlarning ehtiyojlari va istaklarini tushunish, ularning imkoniyatlarini hisobga olish, mijozning uning sifatiga bo'lgan

umidlarini kamaytirmaydigan xizmat ko'rsatish jarayonini optimallashtirish, mijozlarning talab va ehtiyojlariga tezkor javob berish maqsadida biznes jarayonlarini doimiy ravishda takomillashtirish, zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalangan holda mijozlar bilan samarali aloqa o'rnatishni yo'lga qo'yish lozim.

11. Kichik biznes subyektlarida mijozlar bilan aloqalarni rivojlantirish faqat texnologik vositalar emas, balki insoniy omillar – ishonch, sodiqlik va ijtimoiy tarmoqdagi aloqalar orqali ham amalga oshiriladi. Shu bois, korxonalariga mijozga yo'naltirilgan boshqaruv modelini shakllantirish tavsiya etiladi. Bu modelda mijozlar bilan ijtimoiy tarmoqlar, fikr-mulohaza tizimlari va onlayn reyting platformalari orqali muntazam muloqot o'rnatiladi. Natijada, korxonalar iste'molchilarning real vaqt fikrlarini tahlil qilib, xizmat yoki mahsulotni tezkor takomillashtirish imkoniga ega bo'ladi. Bundan tashqari, xodimlarni CRM texnologiyalari va mijoz psixologiyasi bo'yicha doimiy o'qitish tizimini yo'lga qo'yish zarur. Bu orqali korxonada "mijoz birinchi o'rinda" tamoyiliga asoslangan innovatsion boshqaruv madaniyati shakllanadi. Shu tarzda, kichik biznes uzoq muddatli raqobatbardoshlikni ta'minlovchi inson-texnologiya integratsiyasi modeliga erishadi.

12. Mijozlarni saqlab qolishning iqtisodiy marketing xarajatlarini qisqarishi, takroriy xaridlar va daromadni oshirish, reputatsiyaning yaxshilanishi, daromadni barqarorlashtirilishi, qo'shimcha sotish va yondosh mahsulotlarni ishlab chiqarish kabilari bilan izohlanadi. Mavjud mijozlarni saqlab qolish yangi mijozlarni jalb qilishdan ko'ra kamroq resurs va xarajat talab qiladi. Sodiqlik mijozlar esa takroriy xaridlar qilishga moyil bo'lib, bu kompaniyaga barqaror daromad manbai yaratadi. Mamnun mijozlar kompaniya haqida ijobiy fikr tarqatib, yangi mijozlarni jalb qilishga yordam beradi. Uzoq muddatli mijozlar bilan ishlash daromad manbalarini barqarorlashtirib, kompaniyaga bozordagi o'zgarishlarga nisbatan barqarorlik va raqobatbardoshlikni ta'minlaydi. Mamnun mijozlar qo'shimcha mahsulotlar yoki yondosh xizmatlarni ham sotib olishga tayyor bo'ladilar, bu kompaniyaning umumiy foydasini oshiradi.

13. Mijozlar bilan munosabatlar strategiyasida haridorga ma'lum foyda keltiradigan yakuniy natijalar xaridorning kutganiga javob beradigan va eng muhimi, undan yuqori bo'lgan mahsulotni sotib olish, sotuvchi va xaridor o'rtasida ishonchli va barqaror ishbilarmonlik munosabatlarining paydo bo'lishi hamda korxonaning yuqori obro'sini yaratish va qo'llab-quvvatlashga asoslanadi.

14. CRM strategiyalarini takomillashtirish bo'yicha kichik korxonalariga mijozlar ehtiyojini chuqur o'rganish va segmentatsiya qilish, onlayn va raqamli platformalarni joriy etish, mijozlarga sodiqlik dasturlarini yaratish, mijozlarga xizmat ko'rsatish sifatini yaxshilash, mijozlar bilan doimiy aloqalarni o'rnatish, innovatsion xizmatlar yaratish va turizm mahsulotlarini diversifikatsiya qilish, Mijozlar qoniqishini o'lchash va yaxshilash hamda mijozlarga taqdim etilgan ma'lumotlarni yaxshilash kabilarning asoslangan takliflari ishlab chiqildi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ PhD.03/2025.27.12.I.25.01 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ КОКАНДСКОМ УНИВЕРСИТЕТЕ**

КОКАНДСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ

РАСУЛОВ ХАМИДЖОН ЯКУБОВИЧ

**СТРАТЕГИИ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ВЗАИМООТНОШЕНИЙ С
КЛИЕНТАМИ В МАЛОМ БИЗНЕСЕ**

08.00.15 – Экономика предпринимательства и малого бизнеса

**АВТОРЕФЕРАТ
диссертации доктора философии (PhD) по экономическим наукам**

Коканд – 2026

Тема диссертации доктора философии (PhD) по экономическим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии под номером В2025.1.PhD/Iqt5262.

Диссертация выполнена в Кокандском университете.

Автореферат диссертации на трёх языках (узбекском, русском, английском (резюме)) размещен на веб-сайте Учёного совета (www.kokanduni.uz) и на информационно-образовательном портале «ZiyoNet» (www.ziynet.uz).

Научный руководитель:

Дехканов Шерзод Абдумуталибович
Доктор философии по экономическим наукам,
PhD, доцент.

Официальные оппоненты:

Умарова Гузал Гайратовна
доктор экономических наук, доцент
Эргашев Илхомжон Икрамович
доктор философии (PhD) по экономическим
наукам, доцент

Ведущая организация:

**Международный университет туризма и
культурного наследия «Шёлковый путь»**

Защита диссертации состоится в Учёном совете PhD.03/2025.27.12.1.25.01 по присуждению учёных степеней при Кокандском университете _____ (Адрес: 150701, город Коканд, улица Туркистан, 28А. Тел.: (99873) 545-55-55; факс: (99873) 545-55-55; e-mail: info@kokanduni.uz).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Кокандского университета (Адрес: 150701, город Коканд, улица Туркистан, 28А. Тел.: (99873) 545-55-55; факс: (99873) 545-55-55; e-mail: info@kokanduni.uz).

Автореферат диссертации распространён «__» _____ 2026 года.
(протокол реестра № __ от «__» _____ 2026 года)



Ж.Х. Камбаров
председатель Учёного совета
по присуждению учёных степеней, д.э.н., профессор

Б.Ф. Хурсаналиев
учёный секретарь Учёного совета
по присуждению учёных степеней, д.ф.э.н., доцент

Э.А. Момнилова
председатель научного семинара при Учёном совете
по присуждению учёных степеней, д.э.н., профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и необходимость темы диссертации. В глобальной экономической среде стремительный рост конкуренции, широкое использование информационных и цифровых технологий, а также непрерывное изменение требований клиентов вывели для субъектов малого бизнеса эффективное управление взаимоотношениями с собственными клиентами на уровень важной стратегии. Как отмечается в исследованиях, проводимых Всемирным банком и международными финансовыми организациями, на глобальном уровне успешные взаимоотношения предприятий малого бизнеса с клиентами оцениваются как основной фактор их устойчивого удержания на рынке. Мировой опыт показывает, что компании, внедрившие CRM-системы, достигли в среднем 25 % роста доходов³³. Аналогично, согласно результатам исследования, проведённого Bain & Company, увеличение клиентской базы всего на 5 % может увеличить прибыль компании от 25 до 95 %³⁴. Эти цифры наглядно подтверждают вклад CRM-систем и стратегий эффективной работы с клиентами в успех современного бизнеса.

С научной точки зрения сложности, возникающие перед субъектами малого бизнеса, и конкурентные рыночные условия требуют от них дальнейшего укрепления взаимоотношений с клиентами, разработки новых стратегий и подходов и внедрения их в практику. Научные исследования, направленные на обеспечение удовлетворённости клиентов и их удержание, в последние годы стали одним из наиболее приоритетных направлений в сфере маркетинга и управления бизнесом. В частности, интеграция цифровых технологий, искусственного интеллекта, прогнозной аналитики и подходов эмоционального маркетинга со стратегиями CRM формирует новые тренды мировой науки. Однако недостаток теоретических моделей, учитывающих специфику малого бизнеса, и то, что имеющиеся исследования в основном проводятся на примере крупных компаний, определяют теоретическую и практическую актуальность исследований по данной тематике.

В Узбекистане проводимые экономические реформы определили в качестве основной задачи развитие малого бизнеса, увеличение его доли в валовом внутреннем продукте и улучшение предпринимательской среды. Также укрепляются экономические и правовые основы защиты прав потребителей. Стратегия «Узбекистан-2030»³⁵ во втором направлении направлена на обеспечение благосостояния населения за счёт устойчивого экономического роста и включает 17 целей. В частности, в её 58-й цели поставлены задачи по увеличению числа туристов за счёт создания широких условий для развития внешнего и внутреннего туризма в Узбекистане, а в 59-й цели — по ускоренному развитию сферы услуг в регионах. Подобные реформы свидетельствуют о необходимости интенсивного увеличения объёма научных исследований, связанных с повышением конкурентоспособности данной сферы. Реализация этих задач требует от субъектов малого бизнеса более эффективного управления взаимоотношениями с собственными

³³ <https://saphyte.medium.com/unraveling-crms-impact-on-sales-insights-success-stories-and-challengesfac48c81e0e>.

³⁴ <https://hbr.org/2014/10/the-value-of-keeping-the-right-customers>.

³⁵ Указ Президента Республики Узбекистан от 11 сентября 2023 года № PF-158 «О Стратегии «Узбекистан-2030» <https://lex.uz/pdfs/6600413>.

клиентами, оперативного реагирования на рыночные требования и использования передовых CRM-технологий.

